

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI



ILMIY  
AXBOROTNOMA

2025

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF  
NAMANGAN STATE UNIVERSITY



NAMANGAN DAVLAT  
UNIVERSITETI  
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-12]  
ISSN:2181-1458  
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA  
journal.namdu.uz  
PHILOSOPHICAL

Bayeshanov Abdulla

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi  
a.bayeshanov@gmail.com

UDK: 504.03

### TATBIATGA ANTROPOGEN OMILLARNING TA'SIRI VA UNING OQIBATLARI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inson va tabiatning uzviy bog'liqligi, inson faoliyatining tabiiy muhitga ta'siri, iqlim o'zgarishiga sabab bo'luvchi tabiiy va antropogen omillar natijasida vujudga keladigan salbiy oqibatlarining insoniyatga ta'siri masalalari, shuningdek tabiatdagi muvozanatning yo'qolishi inson va uning kelajagi uchun jiddiy tahdid ekanligi ochib berilgan.

**Kalit so'zlar.** Iqlim o'zgarishi, bio xilma-xillikni yo'qolishi, antropogen omil, tabiiy omil, tabiat, quyosh faolligi.

Баешанов Абдулла

преподаватель Гулистанского государственного университета

### ВЛИЯНИЕ АНТРОПОГЕННЫХ ФАКТОРОВ НА ПРИРОДУ И ИХ ПОСЛЕДСТВИЯ

**Аннотация:** В данной статье раскрываются вопросы неразрывной взаимосвязи человека и природы, воздействия человеческой деятельности на природную среду, а также влияния негативных последствий, возникающих в результате природных и антропогенных факторов, вызывающих изменение климата, на человечество. Особое внимание уделяется тому, что утрата природного равновесия представляет собой серьезную угрозу для человека и его будущего.

**Ключевые слова:** изменение климата, утрата биоразнообразия, антропогенный фактор, природный фактор, природа, солнечная активность.

Bayeshanov Abdulla

Lecturer at Gulistan State University

### THE IMPACT OF ANTHROPOGENIC FACTORS ON NATURE AND THEIR CONSEQUENCES

**Abstract:** This article examines the inseparable relationship between humans and nature, the impact of human activities on the natural environment, as well as the effects of negative consequences arising from natural and anthropogenic factors that contribute to climate change on humanity. It also highlights that the disruption of natural balance poses a serious threat to humans and their future.

**Keywords:** climate change, loss of biodiversity, anthropogenic factor, natural factor, nature, solar activity

**Kirish.** Ma'lumki bugungi kunda tabiatga xususan ekologiya, atrof-muhitga e'tibor berish, ekologik muammolarni hal qilish va tabiiy muhit barqarorligini ta'minlash juda muhimdir. Suv, havo va yer kabi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiiy bio xilma-xillikni saqlash va himoya qilish zaruriyati har doimgidan ham dolzarblashib bormoqda. Insoniyatni sog'lom va barqaror istiqbolini ta'minlash uchun hozirgi avlodning ehtiyojlarini qondirishni kelajak avlodlarning ehtiyojlariga zarar yetkazmasdan amalga oshirish masalasini ko'ndalang qo'ymoqda. Bu borada ko'plab fan sohalarida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Inson faoliyatining tabiiy va ijtimoiy muhitga ta'sirini, shuningdek, atrof-muhitning inson sog'ligi,

turmush tarzi, hayoti, axloqi va madaniyatiga ta'sirini o'rganish, uning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tahlil etish vazifasi dolzablik kasb etmoqda.

#### Adabiyotlar tahlili.

Tabiat va unga ta'sir etuvchi omillar masalalarini ko'plab olimlar tadqiq etib kelishgan. Dunyo olimlaridan Shvetsiyalik nobel mukofoti sovrindori Svante August Arrhenius karbonat angidridning atmosferadagi konsentratsiyasining oshishi global isishga olib kelishini mumkinligini haqidagi fikrlarni ilgari surgan bo'lsa[1], amerikalik biolog olim E. O. Wilson o'z qarashlarida tabiat va uni asrash, bio xilma xillikning yo'qolishining salbiy oqibatlarini o'rgangan[2].

MDH olimlaridan Drozdov V.V ekologiya va uni asrash, ekologiyaga insonning ta'siri[3] kabi masalalarni tadqiq etgan.

Mamlakatimiz faylasuf olimlaridan N.X.Xakimov inson ekologiyasi, ekologik muammolarning vujudga kelishi, shakllanishi, to'planishi va inson hayotiga salbiy ta'sirini[4] tadqiq etgan bo'lsa, Q.Tojiboyev inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni[5] tahlil etgan.

#### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqotni olib borishda analiz, sintez, kuzatish va so'rovnoma kabi ilmiy metodlaridan, shu jumladan mantiqiylik, ilmiy manbalarni tahliliy tadqiq etish kabi tamoyillardan foydalanildi.

#### **Natijalar va muhokama.**

Insoniyat yaralibdiki tabiatga muhtoj. Inson yashab qolishi uchun tabiatdan olinadigan narsalarga mutlaqo bog'liq. Masalan, oddiy havoni olaylik. Nafas olishimiz uchun kislorod kerak bo'lib, bu esa o'z navbatida o'simliklar fotosintezi natijasida hosil bo'ladi. Yoki, oziqlanishi uchun tabiatda mavjud bo'lgan o'simliklar, hayvonlar, baliqlar va ichish uchun toza suvga ehtiyoji bor. To'rt faslda kiyish uchun kiyim-kechak, yashash uchun uy kabilarga paxta, metal, yog'och, tosh singari xom-ashyolarning barchasini tabiatdan oladi. Tabiatning o'zgarishi ya'ni rivojlanishi yoki tanazzulga uchrashi bevosita bashariyatga ta'sir ko'rsatadi.

Agar inson tabiatga zarar yetkazsa, tabiiyki tabiat o'zini tiklashga harakat qiladi. Ammo bu jarayon ko'pincha inson uchun salbiy natijalarga olib keladi. Tabiatga yetkazilgan har bir zararining badalini avvalo insoniyatni o'zi to'lashiga to'g'ri keladi. Buni tarix ham bugungi kundagi vaziyat ham isbotlab qo'ygan. Masalan iqlim o'zgarishini olaylik. "Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi (IPCC) ma'lumotlariga ko'ra, 1880-yildan 2020-yilgacha global harorat o'rtacha 1,1°C ga ko'tarilgan. Bu kichik ko'rinadigan o'zgarishning sayyoramizda olib kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik oqibatlari beqiyosdir".[6] "Har yili 20 milliondan ortiq odam iqlim o'zgarishi oqibatlari tufayli o'z uylarini tark etishga majbur bo'lmoqda".[7]

Odatda iqlim o'zgarishiga tabiiy omillar va antropogen omillar ta'sir ko'rsatadi. Quyoshning faolligidagi o'zgarishlar yoki vulqon otilishi iqlimga ta'sir etuvchi tabiiy omillar deyish mumkin. Quyoshning energiyasi va faolligi vaqti-vaqti bilan o'zgarib turadi, bu ham Yer haroratiga ta'sir ko'rsatadi. "Yerda kuzatiladigan ko'plab fizik va biologik hodisalarning kechishi, xususan, iqlimning o'zgarishi, xilma-xil kasalliklarning davriy ravishda takrorlanishi, ionosferadagi hodisalar, Yer magnit maydoni «bo'ronlari» va kosmonavtlar uchun radiatsiya xavfining tug'ilishi - bularning hammasiga Quyoshda ro'y beradigan turli faol jarayonlar sababchi ekanligi fanga anchadan beri ma'lum".[8]

Vulqonlar atmosferaga chang va aerozollar chiqarishi mumkin, ular qisqa muddatga Quyosh nurlarini to'sib, Yer haroratini biroz pasaytirishi mumkin. Shuningdek, vulqonlar otilishi natijasida chiqadigan oltingugurt dioksid va boshqa kislotali gazlar kuchli kislotali yomg'irlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa havo sifatiga jiddiy tasir ko'rsatishi, o'simliklar, suv havzalari va infratuzilmaga zarar yetkazishi mumkin. Vulqonlar chiqargan karbonat angidrid ham iqlimga ta'sir etadi. Lekin, bu tabiat hodisalari azal-abad mavjud bo'lib, ayni davrdagi kuzatilayotgan global isishning sababi asosan antropogen omillar bilan bog'liq. Tabiiy omillar ushbu o'zgarishlarga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi deyish mumkin. Tabiiy omillar ming yillar davomida asta-sekinlik bilan sodir bo'ladigan o'zgarishlarga sabab bo'lsa, so'nggi yillardagi keskin isish insoniyatning sanoatlashuvi va iste'moli bilan bevosita bog'liqdir. Sanoat chiqindilari atmosferadagi muvozanatni buzib, global isishga olib keladi, bu esa o'z navbatida qurg'oqchilik, toshqinlar, tornado, bo'ronlarga sabab bo'lib, favqulotda ob-havo hodisalarini kuchaytiradi. Fabrika va zavodlar ishlab chiqarish jarayonlari va isitish uchun qazilma yoqilg'ildan foydalanadi, bu jarayon juda ko'p miqdorda karbonat angidridni atmosferaga chiqaradi.

"1896 yilda shved olimi, Nobel mukofoti sovrindori Svante August Arrhenius atmosferada CO<sub>2</sub> ning to'planishi o'rtacha haroratning oshishini aniqladi. Agar u ikki baravar oshsa, Yer yuzasidagi o'rtacha harorat 5 °C ga ko'tarilishini hisoblab chiqdi. Bundan tashqari, Arrhenius atmosferadagi CO<sub>2</sub> konsentratsiyasining pasayishi muzlik davri asosiy omillardan ekanligini aniqladi".[9]

Katta hududlardagi o'rmonlarni kesish ham jiddiy iqlim o'zgarishiga olib keladi. Atmosferadagi korbanat angidridni o'zlashtirib, kislorod chiqaruvchi tabiiy o'rmonlar sayyoramizning o'pkasi hisoblanadi. Bundan tashqari, daraxtlar yerda tuproq namligini ushab turish vositasi hamdir. O'rmonlar o'simlik va hayvonot dunyosining katta qismi uchun boshpanadir. O'rmonlarning yo'q qilinishi bu turlarning yashash joylarini buzadi yoki butunlay yo'q qiladi. Bu bio xilma-xillikni yo'qolishiga olib keladi. O'rmonzorlarni yo'qolishi tuproq eroziyasi va cho'llanishni tezlashtiradi. Suv toshqinlarini tezroq va talofatliroq bo'lishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Chunki, daraxtlar suvni shimib oladi va tuproqni barqaror ushlab turadi. Daraxtlar suvning tuproqqa singishiga yordam beradi, bu esa yer osti suv zaxiralarini to'ldiradi. O'rmonlar yo'q bo'lganda, suvning tuproqqa singishi kamayadi, bu yer osti suvlari sathining pasayishiga olib keladi. O'rmonlarning qisqarib ketishi tabiatning muvozanatini buzadi, ekologik falokatlariga sabab bo'ladi. Bu o'z navbatida insoniyatning kelajakdagiga jiddiy tahdid soladi. Shuning uchun o'rmonlarni muhofaza qilish eng muhim ekologik ustuvor vazifalardan biridir.

Havon sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, iqlim o'zgarishiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy antropogen omillardan yana biri bu avtomobil transport vositalari hisoblanadi. Avtomobillar zamonaviy hayotning ajralmas qismiga aylangan bo'lsa-da, ularning ekologiyaga salbiy ta'siri bisyor. Transport vositalarining aksariyat qismi benzin, dizel kabi yoqilg'ilarda ishlaydi. Ularni yoqish ham katta miqdorda zararli gazlarni chiqaradi.

Statistika agentligining olingan ma'lumotlarga ko'ra, 2024 yilning 1 yanvar holatiga o'zbekistonda jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan avtomobillar soni 4 020 744 tani tashkil etgan. [10]. Bu ko'rsatgich yildan yilga oshib bormoqda. Shaxsiy avtomobillarning ko'payishi, jamoat transportiga bo'lgan ehtiyojning kamayishiga olib keldi. Shuningdek, tirbandliklarni vujudga keltirib chiqaradi. Harakatdagi transportga nisbatan tirbandlikda turgan taransport vositasi ko'proq zaharli gaz chiqarishi ma'lum. Har bir avtomobildan chiqayotgan zararli gazlar atmosferaga salbiy ta'sir ko'rsatib, havoning ifloslanishiga olib keladi. Ayniqsa ekologik jihatdan sifatsiz yoqilg'i

ishlatilishi atmosferaga kuchli ta'sir etadi. "1ta avtomobil bir kunda o'rtacha 10-12 litr benzin yoqadigan bo'lsa, atmosferaga taxminan 25 kilogramm zararli modda chiqaradi. Bu esa 1 yilda 4 tonnadan ortiq kislorodni yo'qotishga imkon beradi".[11]

Bunday vaziyatda, imkon qadar jamoat transportlaridan foydalanishni rag'batlantirib, shaxsiy avtomobilga bo'lgan ehtiyojning biroz kamaytirish ham foyda berishi mumkin.

#### Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, inson hech qachon tabiatning bir qismi ekanligini his qilishi, hayotning har bir turini qadrlashga va sayyoramizni kelajak avlodlar uchun asrab qolishga intilishishi lozim. Tabiatga antropogen ta'sirlarning kuchayishi – ekologik muvozanatning buzulishiga olib kelishi va buning natijasida insoniyat kelajagi xavf ostida qolishi mumkinligini hech qachon unutmaslik lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Arrhenius, S. (1896). XXXI. On the influence of carbonic acid in the air upon the temperature of the ground. *The London, Edinburgh, and Dublin Philosophical Magazine and Journal of Science*, 41(251), 237-276.
2. Wilson, E. O. (2015). The diversity of life. In *Thinking about the Environment* (pp. 193-195). Routledge.
3. Дроздов В.В. Общая экология. Учебное пособие. - СПб.: РИТМУ, 2011. - 412 с
4. Хакимов Н.Х. "Инсон экологияси": Монография. Т.: "IQTISODIYOT", 2021. - 244 б.
5. Тожибоев Қ. Инсон ва табиат муносабатларининг ма'рифий тамойиллари. - Тошкент: Тарбия, 2017.
6. Seytmuratovna, K. R. (2025). GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI VA UNING O'ZBEKISTON HUDUDIGA TA'SIRI. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 2(5), 119-123.
7. The official website: UNHCR, Global Trends: Forced Displacement in 2020. 2021. Available at: <https://www.unhcr.org/flagship-reports/globaltrends/> [accessed on: 01.07.2025].
8. Narzullayev M.N, Narzullayev U.A. QUYOSH FAOLLASHUVINING HOZIRGI 25-TSIKLI VA YER BIOSFERASIGA TA'SIRI. *Образование и инновационные исследования* (2024 год № 5). В.-181-182.
9. Tovbayev, G., & Umurzoqov, S. (2025). IQLIM O'ZGARISHINING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI. *Экономика и социум*, (1-1 (128)), 292-298.
10. [https://t.me/statistika\\_rasmiy/4315](https://t.me/statistika_rasmiy/4315)
11. Yuldoshev, D. T. O. G. L., & Azizov, A. A. (2024). Transport vositalarining atrof-muhitga ta'siri. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(1), 485-491.
12. Bayeshanov, A. (2025). INSON EKOLOGIYASI: TABIAT VA INSON UYGUNLIGI. *Академические исследования в современной науке*, 4(36), 35-38.

biostimulyatorlar hamda agroteknologik innovatsiyalarni ta'siri: nazariy va amaliy tahlil.

A.To'xtasinov..... 290

Termitlar (insecta: isoptera) bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarga oid.

A.Xusanov, N.Toshtemirova..... 296

Историко-сравнительный анализ растительности берёзовых сообществ (betula tianschanica) кураминского хребта бассейна Чодалая.

З.Жураханова, А.Батошов..... 304

Keksa yoshda yurak-tomir tizimining jismoniy zo'riqishga moslashishining neyrogumoral mexanizmlari.

G'.Abdullayev, A.Zaynabiddinov, E.Umarov..... 308

## TARIX FANLARI

### 07.00.00 - ИСТОРИЧЕСКИЕ НАУКИ

### HISTORICAL SCIENCES

O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iziston Respublikasi o'rtasidagi madaniy va marifiy aloqalar 1991-2025-yillar.

S.Sodikov, D.Satimova..... 314

## IQTISODIYOT FANLARI

### 08.00.00 - ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

### ECONOMIC SCIENCES

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning mahalliy darajasida tabiiy resurslarni o'zlashtirish imkoniyatlari.

Sh.Bannoyev..... 318

Aholi salomatligi ko'rsatkichlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri.

Z.Turg'unov, Y.Abdullayev..... 323

O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanish istiqbollari.

A.Shavkatov..... 326

## FALSAFA FANLARI

### 09.00.00 - ФИЛОСОФСКИЕ НАУКИ

### PHILOSOPHICAL SCIENCES

Global xavf omillari sharoitida milliy qadriyatlar va barqaror taraqqiyot masalasi.

U.Ergashev..... 331

Tatbiatga antropogen omillarning ta'siri va uning oqibatlar.

A.Bayeshanov..... 335

Ijtimoiy davlatda inson qadr.

X.Beshimov..... 338

Ibn Arabiyning tasavvufiy falsafasida borliq, yo'qlik va vaqt masalasi.

M.Yarashova..... 343

Yangi o'zbekistonda huquq sohasidagi islohotlarning o'ziga xos xususiyatlari.

E.Shodiyeva..... 347

O'zbekiston jamiyati transformatsiya, milliy tiklanish va falsafiy paradigmlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili.

A.Maxmudov..... 350

Tadbirkorlik madaniyatining zamonaviy ijtimoiy-falsafiy interpretatsiyasi.

B.Ganiyev, E.Abduxolikova ..... 355

Jamiatimiz yangilanish davrida vijdon erkinligi masalasi.

D.Egamova..... 360

Jamiat madaniyati va submadaniyatlar o'rtasidagi dialektik munosabat: ziddiyat va muvozanat masalasi.

D.Raximova..... 365

Globallashuv va integrasiyalashuv jarayonlarida ayollar jinoyatchiligini oldini olish bo'yicha ilg'or xorij tajribasining falsafiy tahlili.

F.Raxmonov..... 372

Jamiat taraqqiyotining yangi bosqichida madaniy universallashtirish va ijtimoiy-madaniy qadriyatlar dialektikasi.